

## **BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA HAMKORLIKDAGI TA‘LIMNING TUTGAN O‘RNI**

**Tursunova Nasiba Alisher qizi**

Toshkent shahridagi YODJU texnika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Bugungi kunda mustaqil yurtimiz demokratik davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish pog‘onasida turgan ekan, albatta birinchi navbatda boshlang‘ich ta‘lim muhitida e‘tiborga olinishi zarur bo‘lgan sohalarga diqqatimizni qaratmog‘imiz darkor. Boshlang‘ich ta‘lim tizimi keng qamrovli soha va uning texnologiyalari ham bisyordir. Ushbu maqolada aynan boshlang‘ich sinflarda hamkorlikdagi ta‘lim sifatini oshirishga, uning tub mohiyatini anglashga muammolarini bartaraf etish hamda eng maqbul yechimini tadbiq qilishga qaratilgan fikrlarni ko‘rib chiqamiz.

**Kalit so‘zlar:** kuchli fuqarolik jamiyati, hamkorlikda o‘qitish, o‘qitish texnologiyasi, tarbiya, metodlar, komandada o‘qitish metodi, kichik guruhkaeda o‘qitish metodi, arra metodi arra 2 metodi, birgalikda o‘qiyimiz metodi.

## **THE ROLE OF COLLABORATIVE LEARNING AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

**Tursunova Nasiba**

a third-year students of Primary Education at YODJU Technical Institute in  
Tashkent.

**Annotation:** Today, as our independent country is on the verge of transition from a democratic state to a strong civil society, we must first focus on areas that

need to be addressed in the primary education environment. The primary education system is a comprehensive field and its technologies are also rich. In this article, we will look at ideas for improving the quality of collaborative education in the primary grades, overcoming the problems of understanding its essence, and implementing the most optimal solution.

**Key words:** strong civil society, collaborative learning, teaching technology, education, methods, team teaching method, small group teaching method, saw method arrra 2 method, we read method together

**Hamkorlikda o‘qitish** – bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar guruhi, yakka o‘quvchi hamda butun sinf bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o‘quvchilarning ham o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. Hamkorlikdagi ta’lim eng ommalashgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boisi, har bir pedagog o‘z sinf jamoasida, albatta, o‘quvchilar o‘rtasida yoki individual holatda ular bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlikdagi ta’limning asosiy maqsadi o‘zaro fikr almashish, muammolarni birgalikda foydali yechim bilan hal qilish, xulosa chiqarish kabi dolzarb masalalarni o‘z ichiga oladi. Hamkorlikdagi o‘qitish g‘oyasi turli mamlakatlarda jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori-R.Slavin, Minnesot universiteti professori-R.Jonson, D. Jonson, Koliforniya universiteti professori-SH.Sharon tomonidan ishlab chiqilgan. Turli davlatlarda hamkorlikdagi ta’lim g‘oyasi turlicha talqin qilingan. Masalan, Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikdagi o‘qitish tizimi asosan, Davlat ta’lim standarti(DTS) va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan g‘oyani ilgari surishgan. Biroq, Isroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikdagi ta’lim ko‘proq o‘quvchilar tomonida o‘quv materialini qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o‘quv baxsi va munozaralarni o‘tkazishni nazarda tutadi. Ikki go‘ya yuzaki qaralganda turli xil bo‘lishiga qaramay, didaktik jihatdan bir-birini boyitadi va bir-birini taqazo etadi.

Ushbu sifatlarni o‘quvchi shaxsida shakllantirish uchun hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy jarayonlari mavjud.

**1. Komandada o‘qitish.** Bu metodga R. Slavin asos solgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar teng sonli ikki komandaga ajraladi. Komanda a‘zolari o‘quv vazifani hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi o‘z bilim, ko‘nikma va malakasini ishga solgan holda, komandasining muvaffaqiyati uchun hissa qo‘shishi nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinflarda bu metodni matematika faniga qiyoslab tushuntirsak, fanimiz ham bevosita „Quvnoq matematika“ nomi ostiga tushib qoladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan, o‘quvchilar komandaga teng sonli qilib bo‘linadi va ularga meva shakliga ega bo‘lgan qog‘ozlar taqdim etiladi. „Mevalarning“ orqa qismida esa o‘tilgan mavzu yuzasidan misollar yozilgan bo‘lishi maqsadimizga yetishimizga ko‘maklashadi. Doskalarga esa, har bir kamanda uchun daraxt suratlari yopishtirilib, Kimning mevasi tez pishadi?“ degan savol ostida vazifa boshlanadi.

Bunda o‘quvchilar tezlik va sifatga e‘tiborni qaratgan holda, „mevalarda“gi misollarni hamkorlikda yechadi, bir-birilariga nisbatan ko‘mak shakllanadi, ba‘zi holatlarda liderlik tamoyilini ham singdirishimiz mumkin. Albatta, bu metod nihoyasiga yetganida, biz o‘quvchilarda o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, hamkorlikni shakllantirish, hamda o‘quvchilarda psixologik dam olish bosqichini ham o‘tkazib olishga erishamiz.. R. Slavin ta’kidlashicha, komandada oqitish metodida rag‘bat muhimdir. Ya’ni o‘quvchilar yakka holatda yoki komandasi bilan birga rag‘batlantirilsa, keyingi mavzularda bu metoddan foydalanish bolalarda qiziqish uyg‘otishi, talabning kuchayishiga olib keladi.

## **2. Hamkorlikda o‘qitishning «Birgalikda o‘qiyamiz» metodi**

Hamkorlikda o‘qitishning «Birgalikda o‘qiyamiz» metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Hamkorlikda o‘qitish ta’lim tizimining bu metodi kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish metodiga o‘xshash jihatlari mavjud. Jumladan ushbu metodda ham bolalar guruhlariga bo‘linadi hamda har bir guruhda 4-5 kishidan iborat jamoa a‘zolari shakllanadi. Bu metodning asosiy maqsadi o‘quvchilarni biriktira olish, komandani

taqdirlash, individual imkoniyatlarga e'tiborni kuchaytirish, muvaffaqiyatga erishish uchun bir nechta imkoniyatlarni ko'rib chiqishga undashdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hamkorlikdagi ta'lim o'quvchilarda bir qancha axloqiy sifatlarni kamol toptirishga ko'maklashadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.<http://staff.tiiame.uz/storage/users/167/presentations/7cn8svyZuc3GGdQqUE93tZk1Ktvt4iY7XnTHSGKu.pdf>
- 2.[https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-vazirligi\\_v15.html?page=33](https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-vazirligi_v15.html?page=33)